

## MAKTAB O‘QUVCHILARINING BIOLOGIYA DARSLARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

**Isag‘aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna**

Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi

### ANNOTATSIYA

Maqolada PISA dasturi asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida funksional savodxonlik, uning tarkibiy qismlari, ahamiyati yoritilgan. Maktabdagi biologiya darslarida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish uchun topshiriqlar tuzishning namunalari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** texnologiya, maktab ta‘limi, topshiriqlar, funksional savodxonlik, PISA dasturi.

**Аннотация:** В статье описывается функциональная грамотность, ее составляющие и значение в общеобразовательной школе на основе программы PISA. Показаны примеры создания заданий на развитие функциональной грамотности учащихся на школьных уроках биологии.

**Ключевые слова:** технологии, школьное образование, задачи, функциональная грамотность, программа PISA.

**Abstract:** The article describes functional literacy, its components and significance in a comprehensive school based on the PISA program. Examples of creating tasks for the development of functional literacy of students at school biology lessons are shown.

**Key words:** technologies, school education, tasks, functional literacy, PISA program.

Jahonda o‘quvchilar funksional savodxonligini rivojlantirish, o‘qitish natijalarini baholashning raqamli ta‘lim muhitida amalga oshirishga qaratilgan intensive texnologiyalarini ishlab chiqish, tezkor va obyektiv baholash platformalarini, elektron ta‘lim resurslarini yaratish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ayni vaqtda, maktab ta‘limi sifatini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish, maqsad, tamoyil, mazmun va texnologiyalarini uzluksiz modernizatsiyalash, raqamli ta‘lim talablariga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim sohasidagi halqaro qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, respublikamiz ta‘lim muassasalari o‘quvchilari biologiya fani bo‘yicha bilim jihatidan ancha kuchli, ammo

ular bu bilimlarni amaliy yo‘naltirish, shu jumladan hayotiy muhim vaziyatlarda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu munosabat bilan ta‘limning vazifalaridan biri o‘quv faoliyati bilan bog‘liq jarayonda o‘quvchilarning amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning eng yahshi usullarini topish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishdir, ya‘ni ularning funksional savodxonligini samarali shakllantirish zarur omildir. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishga qaratilgan fan-ta‘lim muhitini ochishga yordam beradigan omillarni izlash dolzarbdir.

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasining barcha bo‘g‘inlarida funksional savodxonlik asosiy muhokama mavzusiga aylangan. Zamonaviy dunyoning 20-30 yil avvaligiga qaraganda tezkor rivojlanish tendensiyasi va ancha murakkablashishi pedagogikada: yangi texnologiyalar, yangi kasblarning paydo bo‘lishiga, inson shaxsining iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

O‘quvchilarning funksional savodxonligini kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar, integrasiyalashgan topshiriqlar va axborot texnologiyalari yordamida shakllantirish mumkin va bu sohada biz bir qator texnologiyalarni ishlab chiqmoqdamiz. Tadqiqotimizda raqamli ta‘lim sharoitida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida biologiya fanini o‘rganishda turli topshiriqlar asosida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish-o‘quv-bilish kompetentligini shakllantirish mezoni sifatida talqin etiladi.

O‘quvchilar uchun tavsiya etilgan topshiriqlar ilmiy va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Topshiriqlar maktab o‘quvchilarining o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning tashkilotchiligini, mustaqil o‘rganish, izlanish kerakli ma‘lumotlarni topish va ulardan foydalanish, guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda ishlash, nostandart vaziyatlarda muammoga yechim topish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Bu o‘quvchilarning raqamli ta‘lim sharoitida o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishga, ta‘lim samaradorligini ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishda, shaxsning o‘zini o‘zi rivojlanishini ta‘minlashga, bilim olishda mustaqillikni, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga, axborot va texnologiyalardan foydalanish jarayonida, muammolarni hal etish, tadbirkorlik va ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarning ta‘lim savodxonligi xalqaro baholash tizimi – PISA (Programme for International Student Assessment) ga muvofiq 2009-yildan 2018-yilgacha butun dunyoda o‘quvchi yoshlarning o‘qish savodxonligi (funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismi sifatida) natijalaridagi farq 2019-yilda birmuncha kamayganligini ta‘kidlaydi. Ba‘zi davlatlarda o‘smirlar va qizlar o‘rtasida 2009-yildan 2018-yilgacha o‘qish savodxonligi 20 ballga oshganligini ko‘rsatadi

(masalan, Rossiyada). Bu ijobiy tendensiya o‘smir bolalarning o‘qish savodxonligi 25 ballga yaxshilanganligidan dalolat beradi [5].

Funksional savodxonlik – bu shaxsning jamiyatda tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishishi va o‘zgaruvchan sharoitlarga tezkor moslashish qobiliyati. U bilimlarni egallash, bilish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ilmiy bilimlarni doimiy boyitish va ularni amaliyotga tadbiiq etishni o‘z ichiga oladi, ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning normal yashashi va faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. O‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda nafaqat ilmiy-texnologik taraqqiyotga moslashtirish, balki ta‘lim jarayoniga va o‘quvchiga yondashuvni ham o‘zgartirish lozim. Bu ta‘lim jarayonida katta burilish yasaydi. Faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan uni atrofidagi boshqa g‘oyalarni, fikrlarni qidirishga kirishadi. Fikrlarini bir xil ko‘rinishda emas har xil, mukammalroq ko‘rinishga keltira oladi va bahs yurita oladi.

Biologik savodxonlik – bu insonning o‘zi yashayotgan dunyoda biologiyaning o‘rnini aniqlash va tushunish, biologik jihatdan to‘g‘ri va izchil hulosalar chiqarish, biologiya fanidan ijodiy izlanishlar, qiziquvchanlikdan esa kelajak ehtiyojlari uchun munosib tarzda foydalana olish qobiliyatidir.

Biologik savodxonlikni PISA dasturi doirasida maktab o‘quvchilarining ta‘lim samaradorligini oshirish mumkin. Quyida biologik savodxonlikning namunalari keltiriladi.

Javoblar va vazifalar:

1. Qushlar uchib ketdilar, Yana ortga qaytishar,  
Uzoq mamlakatlarga. Bahor kelsa bizlarga

Ushbu she‘rda keltirilgan ma‘lumotlar qushlarni mavsumiy ucib ketish va uchib kelish qonuniyatlarini ifodalagan. Mavsumiy hodisaning sabablarini izohlang.

Javob: Iqlimning mavsumiy o‘zgarishlariga moslashish jarayoni, kuzda kunlarning qisqarishi, ko‘payish instinkti.

2. Yangi kun ma‘nosini bildiruvchi bahor ayyomining go‘zal baayrami Navro‘zda bayramning eng shoh taomi hisoblanmish – sumalak tayyorlanadigan o‘simlikning qaysi oila vakili ekanligini hamda sumalakning shirinligini ta‘minlab beradigan uning qaysi qismi ekanligini toping.

Javob: Sumalak tayyorlanadigan o‘simlik-bug‘doy, boshqodoshlar oilasining vakili hisoblanadi. Taomning mazali bo‘lishi esa bug‘doy endospermi qancha to‘liq(semiz) bo‘lsa, sumalak shuncha shirin bo‘ladi.

3. Taklif etilgan matndagi hatolarni toping va tuzating.

Ko‘pchilik qushlar kunduzi oziqlanib, kechasi uchadi. Yulduzlarga qarab yo‘l topadi. Ayrim qushlar esa yerni mafnit maydonini o‘zgarishiga qarab yo‘l tanlaydi. Osiyo laylaklari Shimoliy Hindistonda qishlaydi. Bulbullar esa tropik Afrikada

qishlaydi. Qushlar bir hil vaqtda uchib ketadi. Qushlar qishlov joyiga doimo turli yo‘llardan boradi.

Javob: xatolar: Qushlar bir xil vaqtda uchib ketadi. Qushlar qishlov joyiga doimo turli yo‘llardan boradi.

To‘g‘ri javob: Qushlar har xil vaqtda uchib ketadi. Qushlar qishlov joyiga doimo bir xil yo‘llardan boradi.

4. Uchmaydigan eng yirik qushlar, qanotlari patlari yelpig‘ich hosil qilmaydi. Toj suyagi bo‘lmaydi, go‘shti va yog‘i uchun boqiladi. Tovoni qalin teri bilan qoplangan. Shuning uchun issiq qumda oyoqlari qizib ketmaydi. Oyoqlari ikki barmoqli. Kallasini qumga tiqib oladi. Yovvoyi o‘simliklar urug‘i va hashoratlar bilan oziqlanadi. U soatiga 60-70 km tezlikda yuguradi. Bu belgilar qaysi qushga tegishli bo‘lsa uning suratini chizing yoki harakatlarini bajaring.

Javob: Tuyaqush (rasm).

5. Quyida keltirilgan topishmoqda qaysi qush haqida so‘z bormoqda va bu qush nima uchun bunday ta’riflanishi kerak?

Sanchqi bilan abadiy uchadi,

Lekin oziq-ovqatda ishlatilmaydi.

U vilka bilan havoda rulni boshqaradi,

Burilishni aytadi.

Qoshimcha ma’lumotlar: uchib ketuvchi qush, jish bola ochadi, chumchuqsimonlar oilasining vakili, Afrika va Hindistonda qishlaydi.

Javob: qaldirg‘och.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Isagaliyeva S. Functional literacy as a factor of formation of practical competences //I International Scientific and Prastical Conferense «Challenges and problems of modern sciense», Ostober 13-14, 2022, London, United Kingdom. 127 p.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7226182>
2. Toshtemirova M., Isagaliyeva S. Main activity criteria in the development of imagination of primary school students.// **Web of Scientist: International Scientific Research Journal**. Volume 3, Issue 6, June, 2022 Pp. 320-322  
**DOI:** <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7BVKM>.
3. Isag'aliyeva S.M. **Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari** //Ijodkor o'qituvchi jurnali. 2022. №23, 427-431 b.
4. Isag'aliyeva S.M. **Baliqlar sinfi mavzusini o'qitishda qo'llaniladigan grafik organayzerlar** //Ijodkor o'qituvchi jurnali. 2022. №23, 422-426 b.
5. Исағалиева С. Ўқувчилар функционал саводхонлигини шакллантириш педагогик муаммо сифатида //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў журнали. 2022. №5/3, 17-20 б.